

**TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.04/30.12.2019.Tib.30.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

MAKSUDOVA HILOLA FERDINANTOVNA

**NOFILOLOGIK TA‘LIM YO‘NALISHLARIDA SOHAVIY FANLARNI
XORIJIY TILDA O‘QITISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI
(tibbiyot yo‘nalishi misolida)**

13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2026

Fan doktori (DSc) dissertasiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)
Contents of dissertation abstract of doctor of science (DSc)

Maksudova Hilola Ferdinantovna

Nofilologik ta'lim yo'nalishlarida sohaviy fanlarni
xorijiy tilda o'qitishning nazariy-metodik asoslari
(tibbiyot yo'nalishi misolida)3

Максудова Хилола Фердинантовна

Теоретико-методологические основы преподавания предметов
специальности на иностранных языках в нефилологических
образовательных сферах (на примере медицинского направления)33

Maksudova Hilola Ferdinantovna

Theoretical and methodological foundation of teaching special
subjects in foreign language in non-philological foundation
(in the example of the medical field).....67

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works71

**TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.04/30.12.2019.Tib.30.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

MAKSUDOVA HILOLA FERDINANTOVNA

**NOFILOLOGIK TA‘LIM YO‘NALISHLARIDA SOHAVIY FANLARNI
XORIJIY TILDA O‘QITISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI
(tibbiyot yo‘nalishi misolida)**

13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2026

Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertasiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasida B2023.2.DSc/Ped519 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertasiyasi O‘zbekiston milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tma.uz) va «Ziyonet» axborot-ta‘lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	Muxitdinova Xadicha Sobirovna pedagogika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Xoshimova Dildora Urinbaevna pedagogika fanlari doktori, professor Rasulov Hamidulla Abdullaevich tibbiyot fanlari doktori, professor Ergasheva Guli Ismailovna filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat tibbiyot universiteti huzuridagi DSc.04/30.12.2019.Tib.30.03 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026 yil «_____» _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100109, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Farobiy ko‘chasi, 2-uy. Toshkent davlat tibbiyot universitetining 10-o‘quv binosi, 1-qavat. Tel./faks: (+99878) 150-78-25, e-mail: info@tma.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat tibbiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100109, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Farobiy ko‘chasi, 2-uy. Toshkent tibbiyot universitetining 2-o‘quv binosi «B» korpusi, 1-qavat, 7-xona. Tel./faks: (+99878) 150-78-14).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «_____» _____ kuni tarqatildi.

(2026 yil «_____» _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

G.I.Shayxova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosidagi
bir martalik ilmiy kengash raisi, tibbiyot fanlari
doktori, professor

D.Sh.Alimuxamedov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosidagi
bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, tibbiyot
fanlari doktori, dosent

I.A.Siddikova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosidagi
bir martalik ilmiy kengash qoshidagi bir martalik
ilmiy seminar raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda bugungi global axborot asrida ilm-fan va ishlab chiqarishda integratsiyalashuv jarayonining jadal rivojlanishi, xalqarolashuv jarayonlarining ta'lim sohasiga kirib kelishi turli soha vakillarining chet tilida kasbiy muloqot yuritishlariga talab va ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda. Ta'limni xalqarolashtirish tajribasi yaqqol namoyon bo'lgan Bolonya tizimi talabalarni maqsadli ta'lim olishga yo'naltirish, ularning mustaqil ta'lim olish malakasini rivojlantirish kabi afzalliklari bilan oliy ta'lim tizimida xalqarolashuv jarayonini tezlashtirdi. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari jahon miqyosida o'z nufuzini oshirish, xalqaro reyting mezonlarida yuqori ko'rsatkichlarga erishishda sohaviy fanlarni ingliz tilida o'qitish orqali mutaxassislarining chet tilidagi kasbiy-sohaviy kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu bois oliy ta'lim muassasalarining salohiyatini oshirish, QS va TNE xalqaro reytinglariga kirish uchun mutaxassislik fanlarini ingliz tilida o'qitish, EMIning oliy ta'lim muassasalarida joriy etish dolzarb masalalaridan biri hisoblanmoqda.

Jahonda tillarni kasbiy-sohaviy fanlar bilan integratsiyalab o'qitish sifati va samaradorligini oshirish bo'yicha qator maqsadli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, nofilologik oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislik fanlarini ingliz tilida o'qitish borasidagi EMI (English as a Medium of Instruction) va STEM (Science, Technology, Engeneering, Maths) loyihalari tajribalari, shu yo'nalishda Uzbekistan, ACCESS STEM loyihalari doirasidagi ilmiy-amaliy tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. Bu borada oliy ta'lim muassasalarining ta'lim tizimidagi nufuzi va mavqeini oshirishga qaratilgan xalqaro nashrlarni ko'paytirish, xorijiy talabalar va professor-o'qituvchilar sonini oshirish bo'yicha amaliy ishlar, sohaviy fanlarni ingliz tilida o'qitishning nazariy-metodik asoslarini ishlab chiqish yuzasidan olib borilayotgan tadqiqotlar ham alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda yoshlar intellektual salohiyatini oshirish, ularning axborot texnologiyalari va chet tillarini yaxshi biladigan yetuk kasbiy mutaxassis bo'lib yetishishlari borasida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq «...oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish...»¹ vazifalari belgilangan. Ushbu ustuvor vazifalar oliy ta'lim tizimini modernizasiya qilish, xalqaro talabalarga ta'lim olish imkoniyatini yaratish maqsadida xalqaro standartlarga javob beradigan fanlarni ingliz tilida o'qitishning didaktik ta'minotini joriy qilish yuzasidan tadqiqotlar olib borishni oldimizga qo'yimoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-maydagi PF-88-son «Respublikada sog'liqni saqlash tizimini va aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish tamoyillarini takomillashtirish orqali sohani isloh qilishni izchil davom ettirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi i "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-sonli Farmoni.

«O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2025-yil 22-apreldagi PQ-149-son «Tibbiyot sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertasiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi. Ta‘limning xalqarolashuvi jarayonida sohaviy fanlarni ingliz tilida o‘qitish (English as a Medium of Instruction) va ta‘lim muassasalarida qo‘llash imkoniyatlari masalalariga yo‘naltirilgan qator ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalari, jumladan, UCL Institute of Education, University of Oxford (UK), University of Barcelona va Complutense University (Spain), University of Groningen (Netherlands), Lund University (Sweden), Tianjin Foreign Studies University (China), The Education University of Hong Kong (China), Kyung Hee University (Republic of Korea), National University of Singapore (Singapore), Vietnam National University (Vietnam), Universitas Indonesia (Indonesia), Middle East Technical University (Turkey), Georgetown University (USA), Universidade Federal do Paraná (Brazil), O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti (O‘zbekiston)da olib borilmoqda².

Sohaviy fanlarni ingliz tilida o‘qitish borasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida, jumladan, oliy ta‘limda EMIning joriy etishning lingvistik va til siyosati masalalari, shu yo‘nalishda universitetlarning xalqarolashuv strategiyalari ishlab chiqilgan (University of Oxford, Buyuk Britaniya, University of Groningen, Niderlandiya); fan o‘qituvchilarining ingliz tilida dars berish salohiyati, pedagogik kompetensiyalari va professional rivojlanish mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan (Seoul National University, Janubiy Koreya, National University of Singapore, Singapur); EMI darslaridagi nutqiy muloqot, ona tili va ikkinchi tilning o‘zaro ta‘siri, talabalar va o‘qituvchilarning muloqot modellari tahlil qilingan (The Education University of Hong Kong, Xitoy); talabalarning akademik savodxonligi, fan mazmunini o‘zlashtirish sifatini EMIda baholash, fan va til integrasiyasining natijaviylik mezonlari ishlab chiqilgan (Waseda University, Yaponiya); talabalar va pedagoglarning EMIGA nisbatan munosabati va sosiolingvistik omillar aniqlangan (Universidade Federal do Paraná, Braziliya); iqtisodiyot va biznes fanlarini EMIda o‘qitish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan, shuningdek, talabalar motivatsiyasi, uning fan mazmuniga ta‘siri (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zbekiston); talabalarning EMIGA psixologik va motivasion munosabati, ijtimoiy, iqtisodiy

² Dissertasiya ishi bo‘yicha xorijiy tadqiqotlar sharhi www.ucl.ac.uk/ioe/, www.ox.ac.uk/, web.ub.edu/en/home, www.ucm.es/english, www.rug.nl/?lang=en, www.lunduniversity.lu.se/, www.tjfsu.edu.cn/, www.edu.hk/en/, www.khu.ac.kr/eng/user/main/view.do, nus.edu.sg/, portal.vnu.edu.vn/eng/, www.ui.ac.id/en/, www.metu.edu.tr/, www.georgetown.edu/, ufpr.br/ufpr-home/, www.uzswlu.uz/

omillar (Namangan davlat universiteti, O‘zbekiston); EMIda ishtirok etayotgan talabalarning til qiyinchiliklari, pedagoglarning EMIdan foydalanishga tayyorlik darajasi o‘rganilgan (Qarshi davlat universiteti, O‘zbekiston).

Nofilologik oliy ta‘lim yo‘nalishlarida jumladan, tibbiyot universitetlarida ingliz tilini o‘qitishda EMIning joriy etish bo‘yicha kompleks uslubiy strategiyalarni ishlab chiqish (CLIL, CBI, Hard CLIL, Flipped Classroom); o‘qituvchilarning tizimli malakasini oshirish dasturlarini ishlab chiqish; kasbiy fanlar bo‘yicha moslashtirilgan o‘quv materiallarini ishlab chiqish; bosqichma-bosqich amalga oshirish modellarini yaratish (partial EMI → full EMI); EMI malakasining ilmiy asoslangan mezonlarini takomillashtirish; tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida EMIning joriy etishning moslashtirilgan, ilmiy asoslangan modelini ishlab chiqish zarurligini asoslash kabi ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Adabiyot tahlili dunyoda oliy ta‘limda English as a Medium of Instruction (EMI) tadqiqotlari katta qiziqishga ega ekanligini ko‘rsatadi. Xorijiy ilmiy manbalarda EMIning lingvodidaktik asoslari, fan va til integratsiyasi, pedagogik kompetensiyalar va translingvizm tajribasi haqida ma‘lumotlar keltirilgan (Dearden, 2015; Macaro et al., 2018; Wilkinson, 2019). Shu jumladan, EMIda fan o‘qituvchilarining ingliz tilida dars berish salohiyati va ularning professional rivojlanishi mexanizmlari, talabalarning akademik savodxonligi va fan mazmunini o‘zlashtirish jarayoni tahlil qilingan (Doiz et al., 2013; Hu & Lei, 2014). Shuningdek, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tilini o‘qitish muammolari va muayyan maqsadlar uchun ingliz tilini o‘rganishga yo‘naltirilgan yondashuvlar ham keng tadqiq etilgan (Hutchinson & Waters, 1987; Dudley-Evans & John, 1998). Ta‘limning xalqarolashuvi va til siyosati, EMIda fan mazmunini tushunish va akademik savodxonlikka erishishga talabalarning til qobiliyati va fan ko‘nikmalariga ta‘siri masalalari tahlil qilingan (Macaro et al., 2018). CLIL va EMIning farqli funksiyalarini, fan mazmuni til orqali etkazilishining asosiy vazifalari (D. Marsh 2013; J. Adamson, 2023) tadqiq etilgan. Talabalarning EMIGA munosabati va motivatsiyasi, EMIning milliy ta‘lim tizimiga ta‘siri (Coleman, 2006; Tatzl, 2011; Jiang, 2019) o‘rganilgan.

O‘zbekistonda ham EMI bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, sohaviy fanlarni ingliz tilida o‘qitish (G.Raxmonova va G.Ekshi, 2023), respublikamizda EMIGA munosabat (P.Malla, 2023), EMIning lingvodidaktik asoslari, CLIL va bilingval ta‘limni solishtirma tadqiq qilish, pedagogik modellar va scaffolding strategiyalari (British Council Uzbekistan, 2022; Z.Yuldoshboyeva, 2023), Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va Inha universiteti (Inha University in Tashkent)da STEM fanlarida EMIdan foydalanishning kognitiv va metodik ta‘siri (Shamuratova, 2023) masalalarida tadqiqotlar olib borilgan.

Biroq respublikamizda olib borilayotgan tadqiqotlarda hali barcha fan yo‘nalishlarida EMIning qo‘llash, bunda ingliz tili va kasbiy fanlarni integratsiyalash muammolarini aniqlash va bartaraf qilish, bu borada talabalar akademik savodxonligi samaradorligini oshirish, bu sohaga pedagoglarning tayyorgarlik darajasini aniqlash bo‘yicha kompleks tadqiqotlar amalga oshirilmagan. Bu holat ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarni kengaytirish, nofilologik OTMLarda EMIning qo‘llashni ilmiy asoslash zarurligini ko‘rsatadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti

O‘zbekiston Milliy universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va talabalar o‘rtasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot, ilmiy-ijodiy ishlar» ilmiy loyiha hamda «Chet tillarni o‘qitish metodikasining yangi yo‘nalishlari» mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tibbiyot yo‘nalishida sohaviy fanlarni ingliz tilida o‘qitishning nazariy-metodik asoslarini ishlab chiqish va talabalarning EMI ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ta‘limning xalqarolashuvi omillari va akademik mobillikning ustuvor tamoyillarini, sohaviy fanlarni ingliz tilida o‘qitishning lingvodidaktik xususiyatlari, qiyinchiliklari va afzalliklarini nazariy-metodik tahlil qilish;

EMI tushunchasi va ushbu ta‘limning lingvodidaktik xususiyatlari masalalarining nazariy asoslarini tahlil qilish, respublikamiz OTMlari xalqaro reyting mezonlari darajalaridan kelib chiqib, akademik mobillikni ta‘minlash va nofilologik yo‘nalishlarda EMI (English as a Medium of Instruction)ni qo‘llash imkoniyatlarini baholash;

nofilologik OTMlarda ingliz tilini maxsus maqsadlarda o‘qitishning ELT (English Language Teaching), ESP (English for Specific Purposes), CLIL (Content and Language Integrated Learning) va EMI (English as a Medium Instruction) orqali kasbiy-sohaviy fanlarni ingliz tilida o‘qitishning farqli jihatlari, qo‘llanilish xususiyatlarini aniqlash;

tibbiyot yo‘nalishida sohaviy fanlarni ingliz tilida o‘qitishining shakli va vositalarini, bu jarayonda EMI yo‘nalishida ta‘lim bera oladigan o‘qituvchilar kompetentligini ta‘minlash mexanizmini ishlab chiqish;

tibbiyot yo‘nalishida maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili (ESP) bilan kasbiy fanlarni ingliz tilida o‘qitish (EMI) mashg‘ulotlari integratsiyasini ta‘minlashning bosqichli mexanizmini ishlab chiqish va uning metodik ta‘minotini takomillashtirishga qaratilgan mashq va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish;

«Normal fiziologiya» fanini EMI yo‘nalishida ingliz tilida o‘qitish bo‘yicha ishlab chiqilgan metodik ta‘minot hamda mashq va topshiriqlarni tajriba-sinovdan o‘tkazish va eksperimental samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida tibbiyot yo‘nalishidagi oliy ta‘lim muassasalarida mutaxassislik fanlarini ingliz tilida o‘qitishda talabalarning EMI ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini tibbiyot yo‘nalishidagi oliy ta‘lim muassasalari talabalarining sohaviy fanlarni ingliz tilida o‘zlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish shakl va vositalari tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda adekvat holatda o‘rganishni ta‘minlashga qaratilgan nazariy (tahliliy, tasnifiy, chog‘ishtirma tahlil), diagnostik (kuzatish, anketa so‘rovlari, nazorat), prognostik (umumlashtirish, baholash), pedagogik eksperiment va matematik (ma‘lumotlarga statistik ishlov berish, natijalarni grafik tasvirlash va boshqalar) usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tibbiyotga oid sohaviy fanlarni ingliz tilida o‘qitish (English as a Medium of Instruction) amaliyotining ilmiy mazmuni tibbiy ta‘limda akademik-kasbiy diskurs

yaxlitligiga tayangan holda o'quv jarayonida til vositasining ta'limiy vazifasini qayta talqin qilish orqali nazariy jihatdan asoslangan;

tibbiyot yo'nalishi o'qituvchilarining sohaviy fanlarni ingliz tilida o'qitishga tayyorligini rivojlantirish «professor–stajor» formatida amalga oshiriladigan metodik tajriba transferi orqali ilmiy-metodik tayyorlov modeli sifatida takomillashtirilgan;

tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida sohaviy fanlarni ingliz tilida o'qitish amaliyoti EMI implementatsiyasining kurslararo uzviyligi asosida ta'lim shakllari va o'quv materiallarining til-mazmun muvofiqligini ta'minlash orqali aniqlashtirilgan;

tibbiyot yo'nalishida sohaviy fanlarni ingliz tilida o'qitish samaradorligi talabalarda akademik-kasbiy til ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan Flipped Learning didaktik formati orqali fan mazmunini ingliz tilida o'zlashtirish sifatining o'sishi bilan takomillashtirilgan;

«Normal fiziologiya» fanini ingliz tilida o'qitishda Concept Checking Questions va Multimodal Inputga tayangan o'quv formati talabalarning sohaviy ingliz tilida fikr yuritish qobiliyatini EMI baholash indikatorlari asosida oshirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim muassasalarida fanlarni ingliz tilida o'qitishning nazariy va amaliy tavsiyalari asosida «Sohaviy fanlar ingliz tilida» o'quv-uslubiy ko'rsatma yaratilgan;

nofilologik oliy ta'lim muassasalarida maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tilini o'qitish metodikasi bo'yicha «ESP methodology» o'quv-uslubiy qo'llanmasi ishlab chiqilgan;

tibbiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarining 2-bosqichi uchun «Normal fiziologiya» moduli ingliz tilidagi ishchi o'quv dasturi va o'quv-uslubiy majmuasi kontenti boyitilgan;

tibbiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilar va talabalar, tibbiyot xodimlari uchun fiziologiyaga oid terminlarning Inglizcha-O'zbekcha «MedGlossary» izohli lug'atining mobil ilovasi yaratilgan;

respublikamizda tibbiyot yo'nalishida ingliz tilida mashg'ulotlarni olib borishning metodik tavsiyalari majmuidan pedagog xodimlarning malaka oshirish kurslarida EMI o'qituvchilarini tayyorlashda foydalanishga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan;

tibbiyot sohasiga oid ingliz tilidagi materiallarni talabalarga o'rgatishning innavasion usullari 1-bosqichda «Tibbiyotda xorijiy til» modulini o'qitishda qo'llanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llangan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, o'tkazilgan ilmiy tahlillar va ishlab chiqilgan texnologiyalar tajriba-sinov jarayonida aprotatsiyadan o'tkazilgani, tajriba-sinov ishlari samaradorligining ko'rsatkichlari statistik metodlar vositasida asoslangani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, xalqaro va mahalliy tajribalar bilan solishtirilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ta'limning xalqarolashuvi omillari asosida OTMLar akademik mobilligining ustuvor tamoyillari, sohaviy fanlarni ingliz tilida o'qitish – English as

a Medium of Instruction (EMI)ning lingvodidaktik xususiyatlari, respublikamiz oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reyting mezonlaridagi darajalari, mavjud imkoniyatlari aniqlashtirilganligi; tibbiyot yo'nalishida sohaviy fanlarni ingliz tilida o'qitishning bosqichli mexanizmi tavsiya qilingani va tibbiyot muassasalari uchun talabalarni xalqaro standartlar asosida o'qitishning EMI malakalari hamda talablari ishlab chiqilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati OTMLarda fanlarni ingliz tilida o'qitishning nazariy va amaliy tavsiyalari asosida «Sohaviy fanlar ingliz tilida» va «ESP methodology» o'quv-uslubiy qo'llanmalari yaratilgani hamda talabalarining o'quv-kognitiv ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan metodik ta'minot asosida tibbiyot yo'nalishining 1- hamda 2-bosqichlari o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy majmuasi kontentlari boyitilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi:

tibbiyotga oid sohaviy fanlarni ingliz tilida o'qitish – English as a Medium of Instruction amaliyotining mazmun-mohiyati, metodik asoslari va lingvodidaktik parametrlari, tibbiy ta'limda kognitiv-diskursiv mexanizmlari fanlararo integratsiya va pedagogik dizayn tamoyillariga oid nazariy xulosalar Britaniya Kengashining «EMI in Uzbekistan» loyiha doirasida Norvich til ta'limi institutining EMI kursida foydalanilgan (Britaniya Kengashining 2023-yil 10-noyabrdagi ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy xulosalar va tavsiyalar loyihaning seminar-treninglarida foydalanilgan hamda respublikaning tibbiyot OTMLari til o'qituvchilarining kasbiy rivojlantirishga xizmat qilgan;

tibbiyot yo'nalishi o'qituvchilarining mutaxassislik fanlarini ingliz tilida o'qitish va EMI malaka tarkibini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-metodik modul hamda «professor+stajyor» o'qitish formatiga asoslangan kasbiy-metodik tayyorlovning modellashtirilgan mexanizmi taklif etilgan xulosalaridan Qurolli Kuchlar Harbiy tibbiyot akademiyasida «Harbiy tibbiyotni yanada rivojlantirish va pedagogik maxoratni oshirish» ilmiy innovasion klaster doirasida mazkur taklif etilgan tavsiyalar foydalanilgan (Qurolli Kuchlar Harbiy tibbiyot akademiyasining 2023-yil 12-dekabrda ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy xulosalar klaster doirasida bajarilgan monografiya mazmunini boyitishga yordam bergan;

tibbiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida sohaviy fanlarni ingliz tilida o'qitishning qisman EMI va to'liq EMI bosqichli mexanizmi kurslar kesimida o'qitishning shakli va texnologiyalari, o'quv-metodik ta'minoti funksional-strukturaviy mezonlariga oid xulosalar fiziologiya hamda anatomiya faniga oid «English-Uzbek Medical dictionary» chop etilgan (O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligining № DGU 41555-sonli guvohnomasi). Natijada respublika tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari va talabalari, tibbiyot soha vakillari uchun Google Play platformasida «MedGlossary» ilovasi yaratilgan;

tibbiyot yo'nalishida sohaviy fanlarni ingliz tilida o'qitishning sohaga yo'naltirilgan kognitiv, autentik, integrativ, relevantlik mezonlari asosida talabalarining kognitiv-akademik til ko'nikmalarini (Cognitive academic language proficiency) rivojlantirishda teskari sinf (Flipped learning) usulidagi didaktik ta'minoti asosida «ESP methodology» o'quv uslubiy qo'llanmasidan foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti O'quv-uslubiy Kengashining 2022-yil 19-dekabrda 3-sonli majlis bayonnomasi, Mazkur o'quv uslubiy qo'llanma nofilologik oliy ta'lim muassasalarida sohaviy fanlarni ingliz

tilida o‘qitishda metodik qo‘llanma sifatida foydalanish imkonini bergan. Shuningdek, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining «Ta‘lim va taraqqiyot», «O‘zbekiston yoshlari» nomli dasturlarida foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2024-yilning 10-iyuldagi 04-36-824-sonli ma‘lumotnomasi);

«Normal fiziologiya» fanini ingliz tilida o‘qitishda topshiriqlarning bajarilishiga oid konseptni aniqlash savol turlari (Content checking question) va ko‘p formatli ma‘lumot (Multimodal input) usullariga asoslangan o‘quv axborot formati ilmiy asoslangan va talabalarining sohaviy ingliz tilida kommunikativ-kognitiv ko‘nikmalari EMI baholash indikatorlariga oid xulosalar tibbiyot oliy ta‘lim muassasalarining o‘quv jararoyinlarida foydalanilgan (TDTU, BDTI, ADTI 2023-yil ma‘lumotnomalari). Natijada sohaviy ingliz tilini o‘qitishga oid o‘quv kurs materiallari boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 11 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 6 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi bo‘yicha jami 26 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining dissertasiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, jumladan, 10 tasi respublika va 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertasiyaning hajmi 226 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublikamizda va jahonda muammoning o‘rganganlik darajasi haqida ma‘lumotlar berilgan. Tadqiqot ishining davlat dasturlari va ish bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning maqsadi, obykti, predmeti, vazifalari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ularning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyat, aprobatsiyasi va tadqiqot ishi natijalarining joriy qilinishi haqida ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning “**Ta‘limni xalqarolashtirish jarayonida fanlarni xorijiy tilda o‘qitishning didaktik asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida bugungi globallashuv jarayonida ta‘limning xalqarolashuvi omillari, akademik mobilligining ustuvor tamoyillaridan kelib chiqib sohaviy fanlarni ingliz tilida o‘qitish – English as Medium of Instruction (EMI)ning lingvodidaktik xususiyatlari, respublikamiz oliy ta‘lim muassasalarining xalqaro reyting mezonlaridagi darajalari, mavjud imkoniyatlarining nazariy asoslari yoritildi.

Oliy ta‘limni xalqarolashtirish tajribasining yorqin ko‘rinishi – Bolonya tizimi bo‘lib, unda ta‘limdagi xalqarolashuvning yopiq ta‘lim tizimlaridan qator afzalliklari: talabalarda mustaqil ta‘lim olish malakasini rivojlantirish; ularni maqsadli ta‘lim olishga yo‘naltirish; ilm sohasida dunyo miqyosida olib borilayotgan tadqiqot ishlaridan boxabarlilik; onlayn muloqot orqali ilmiy hamkorliklarni yo‘lga qo‘yish; ilm-fan yangiliklarini tezroq amaliyotga tadbiiq etish yaqqol namoyon bo‘ladi.

Ma'lumki, ta'limni xalqarolashtirish o'z-o'zidan ilm-fan sohasida ham xalqarolashuvga olib keladi, shu bois xalqarolashuv jarayonlarini dastavval ta'limdan boshlash maqsadli hisoblanadi. Biroq ta'lim muassasasining xalqarolashuvi o'z-o'zidan yuz beradigan hodisa emas. Xalqarolashuv – OTMning rivojlanish ko'rsatkichlari jahondagi yetakchi oliy ta'lim muassasalari bilan teng darajaga yetishgan taqdiridagina amalga oshadi. OTMning jahondagi yetakchi 1000 talik universitetlar ro'yxatiga kirgan bo'lishi, yaqin va uzoq qo'shni mamlakatlardan talabalarni o'qishga jalb qilish orqali iqtisodiy mustaqillikka erishishi, shuningdek, OTM professor-o'qituvchilarini xalqaro nufuzli universitetlarga ma'ruza yoki amaliy mashg'ulotlar o'tishga takliflar soni ko'p bo'lishi kabilar xalqarolashuv mezonlariga kiritilgan talablardir.

2004-yilda ilk bor o'tkazilgan jahon bo'yicha yuqori reytingga ega OTMlar Amerika va Britaniyaning Garvard, Stenford, Kembridj va Oksford universitetlari hisoblanib, keyinchalik bu ro'yxatga Fransiya, Yaponiya, Xitoy va Avstraliya OTMlari ham qo'shilgan. Ta'lim tili ingliz tili bo'lgan universitetlar 1000 talikka kirgan OTMlarning 71 %ini tashkil etgan (Tran L.T. & Marginson S., 2018).

EMI (English Medium Instruction) tushunchasi 1990-yillarda Yevropa oliy ta'lim muassasalarida akadem mobillikni oshirish maqsadida qo'llangan bo'lib, tez kunlarda u universitetlarning asosiy ehtiyojiga aylandi. Nazariyotchi olimlar tomonidan EMI tushunchasi quyidagicha tavsiflanadi (1-jadvalga qarang):

1-jadval

EMIGA berilgan tavsiflar

Nazariyotchilar	EMIning ta'riflari
Macaro (2015)	Mutaxassislik fanlarni o'qitish uchun ingliz tilidan foydalanish (<i>the use of the English language to teach academic subjects</i>) ³
Pecorari Malmstrom (2018)	Ingliz tilidan nafaqat mutaxassislik fanlarni o'qitishda, balki foydalanuvchilar uchun ikkinchi til sifatida ham foydalanish (<i>...the language used for instructional purposes when teaching content subjects although not itself the subject being taught, and also a second language for most participants in the setting...</i>) ⁴
Galloway et al. (2021)	Ingliz tilining fanlarni o'qitishda xalqaro til sifatida qo'llanilishi (<i>...is part of the broader role of English as a lingua franca, particular in academic domain</i>) ⁵
Dearden (2016)	EMI global jarayon bo'lib, ayniqsa xususiy ta'limda keng qo'llaniladi (<i>global phenomenon, widely used in private education...</i>) ⁶

Bizningcha, EMI – turli yo'nalishlarga oid sohaviy fanlarni ingliz tilida o'qitish, xorijiy mutaxassislar va talabalarni jalb etish orqali ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish hamda ta'limni xalqarolashtirish, professor-o'qituvchilar va talabalarining ingliz tildagi sohaviy kompetentligini ta'minlash orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ta'lim turidir.

³ Macaro E. (2015). Going global 2015: English medium instruction: Seven key points of controversy. Retrieved from http://www.slideshare.net/British_Council/going-global-2015-48709789

⁴ Pecorari D. & Malmström H. At the Crossroads of TESOL and English Medium Instruction. TESOL Quarterly, 2018. September. – № 52 (3). – P. 497-515 // <https://doi.org/10.1002/tesq.470>

⁵ Galloway N. & Rose H. English medium instruction and the English language practitioner // ELT Journal, 2021. January 1. – № 75 (1). – P. 33-41 // <https://doi.org/10.1093/elt/ccaa063>

⁶ Dearden J. & Macaro E. Higher education teachers' attitudes towards English medium instruction: A three-country comparison // Studies in Second Language Learning and Teaching, 2016. September 29. – № 6 (3). – P. 455-486 // <https://doi.org/10.14746/sllt.2016.6.3.5>

Kembridjda nashr etilgan lugʻatda EMI “*EMI skills-communicate more effectively in English with students and colleagues. use a range of language in different situations, from lectures and tutorials to conferences and online discussions, increase familiarity with a range of skills for delivering instruction in English*”⁷ deb izohlangan. Bunda EMI koʻnikmasi deganda mutaxassislik fani oʻqituvchisining talabalar va xamkasblar bilan ingliz tilida samarali muloqot qila olish, maʼruzalar va amaliy mashgʻulotlarni ingliz tilida oʻqitishda barcha til hamda nutq koʻnikmalarini qoʻllay olish koʻzda tutilgan.

J.Richard va J.Pan EMI taʼlim tilini tanlashning sabablari hamda maqsadlari sifatida talabalarning ingliz tilidagi bilimlarini oshirish, koʻp millatli mamlakatlarda umumiy til taʼlimi siyosatini qoʻllash, ingliz tilida soʻzlasha oladigan xodimlarni koʻpaytirish orqali mehnat bozorini oshirish, OTMlar salohiyatini va obroʻsini oshirish, universitetlar oʻrtasida raqobatni rivojlantirish, xalqaro aloqalarni qoʻllab-quvvatlash, talabalarning madaniyatlararo muloqot malakalarini rivojlantirishni koʻrsatadilar⁸. M.Kuteyevaning fikricha, oʻqituvchi yoki talabalarga qaraganda EMIning tadbiq etishga asosan oliy taʼlim muassasalarining mutasaddilari koʻproq xayrixohlar. Xususan, til kompetensiyasi yetarli boʻlmagan OTMlarda sohaviy fanlarni ingliz tilida oʻqitish samaradorligini dasturlar qanday tuzilganligiga va ularning qoʻllanishiga bogʻliq, deb qaraydilar⁹. Aslida esa EMIning samarali tashkil etish nafaqat oʻquv materiallarning dasturga mosligi, oʻqituvchilarning yetarli malakaga ega ekanligi, taʼlim oluvchilar ehtiyojlari inobatga olinganligi, til bilish darajalari yetarli ekanligi, oʻqituvchi va talabalarning qoʻllab-quvvatlanishi hamda ehtiyojiga ham bogʻliqdir. Koʻrinadiki, hozirgi kunda EMI nafaqat OTM tanlovi, balki talabalar va ularning ota-onalarining ham tanloviga aylangan.

Yevropa mamlakatlarida EMI turli taʼlim bosqichlarida fanlarni oʻqitishda keng qoʻllanadi va shunga koʻra uning quyidagi bosqichli turlari mavjud: **erta EMI** – maktabgacha taʼlim yoki boshlangʻich taʼlim bosqichida; **oʻrta EMI** – oʻrta taʼlim bosqichida; **kech EMI**– oliy taʼlim bosqichida. Bunda dasturlar har bir bosqichning talab va maqsadlaridan kelib chiqqan holda shakllantiriladi, biroq umumiy mezonlar barcha bosqichlar uchun birdek amal qiladi. Biroq mutaxassislik fanlarini ingliz tilida oʻqitish taʼlim maqsadidan kelib chiqib turlicha kategoriyalanadi (2-jadvalga qarang):

2-jadval

EMIning maqsadli kategoriyalanishi

Asosiy maqsadi	Tavsifi	Qoʻllanilishi
Fanni, sohani ingliz tili orqali oʻrganish	Fan ingliz tilida oʻqitiladi	Oliy taʼlim muassasalarida
Fanni, sohani ikki tilda oʻrganish	Fan ikki tilda oʻqitiladi	Oʻrta taʼlim muassasalarida
Madaniyatlararo muloqotni oʻrganish	Madaniyatlararo ingliz tili oʻqitiladi	Til va soha integratsiyalashgan loyihalarda
Ingliz tilidagi koʻnikmalarni takomillashtirish	Ingliz tili koʻnikmalarini oshirish	Kasbga yoʻnaltirilgan taʼlim muassasalarida


⁷ Cambridge English Language Assessment Center

⁸ Ren W., Chen Y-S., Lin C-Y. (2016). University students' perceptions of ELF in mainland China and Taiwan. System 56. – P. 13-27.

⁹ Kuteeva M. Teaching and learning in English in parallel-language and EFL setting: Debates, concerns and realities in higher education. AELFE 22. 2011. – P. 5-12.

Mutaxassislik fanlarini ingliz tilida o‘qitishda nafaqat sohaviy til kompetensiyasi, balki qo‘shimcha ravishda ijtimoiy-madaniy kompetensiyalar ham rivojlantirib boriladi. Ye.Gavrilova til va ta‘lim integratsiyasini (Content and Language Integrated Learning) CLILni umumiy termin sifatida qayd etib, u bajaradigan vazifalaridan kelib chiqib turlicha nomlanishi mumkinligini qayd etib o‘tadi. Jumladan, Bilingual Integration of Languages and Disciplines (BILD) – tillar va fanlarning ikki tillik integratsiyasi; English Across the Curriculum (EAC) – ingliz tilidagi o‘quv dasturi; English as an Academic Language (EAL) – ingliz tilini akademik til sifatida o‘qitish; English as a Medium of Instruction (EMI) – ingliz tili ta‘lim vositasi sifatida; Foreign Language Immersion Program (FLIP) – chet tilni o‘rganish dasturi; Foreign Languages as a Medium of Education (FLAME) – chet tillari ta‘lim vositasi sifatida; Language Across the Curriculum (LAC) – o‘quv dasturidagi til; Teaching Content Through English (TCTE) – sohani ingliz tili orqali o‘qitish¹⁰.

X.Bravnning fikricha, EMI – “umbrella term” ingliz tilini o‘qitishda umumiy tushuncha bo‘lib, ta‘limdagi yondashuvdir¹¹. Bu o‘rinda u “sink or swim approach”, ya‘ni “cho‘kadi yoki suzib chiqadi” iborasini qo‘llab, talaba ushbu yondashuvga yoki to‘liq moslashadi, yoki umuman kirisha olmaydi, deb hisoblaydi. Tomsonning qarashlari esa X.Bravnning fikrlaridan butunlay farq qilib, u EMIning o‘qitishda sohaviy tilni o‘qitish turlari bilan o‘zaro bog‘liqlik jihatlari mavjud, degan fikrni bildiradi¹² va umumiy ingliz tilini o‘qitish bilan mutaxassislikka oid ingliz tili o‘qitish o‘rtasidagi bog‘liqlikni quyidagicha ifodalaydi (1-rasmga qarang):



1-rasm. EMIning til ta‘lim yo‘nalishlari bilan bog‘liqligi.

Lyster va Ballinger esa CLIL hamda EMI o‘rtasidagi o‘xshashliklar boshqa ta‘lim shakllari – ESP, EFLga nisbatan kam, chunki ikkalasida ham til o‘rganish, sohani o‘rganish maqsadi turadi, deb ta‘kidlaydilar¹³. Tayvandlik olim V.Soyning fikricha, CLILning EMIdan farqli jihati uning qaysi turi ishlatilishiga bog‘liq, ular **Hard CLIL** “sohaviy fanni o‘qitish” va **Soft CLIL** “tilni o‘qitish” turlari bilan farqlanadi¹⁴.

¹⁰ Gavrilova E., Trostina K. Teaching English for Professional Purposes vs Content and Language Integrated Learning: The case of Plekhanov Russian University of Economics // 1st Mediterranean Interdisciplinary Forum on Social sciences and Humanities. – Beirut, Lebanon, 2014. – P. 23-26. April. – P. 7-17.

¹¹ Brown H., Bradford A. EMI, CLIL and CBI: Differing approaches and goals // JALT 2016 Transformation in Language Education. – Japan, 2016. November 25-28. – P. 324-334.

¹² Gardner H., Jr. T. (2009). Vocabulary integration in a content-based international business English program // Latin American Journal of Content and Language Integrated Learning, 2009. – № 2 (1). – P. 24-28 // <https://doi.org/10.5294/laclil.2009.2.1.4>

¹³ Lyster R. & Ballinger S. Content-based language teaching: Convergent concerns across divergent contexts. Language Teaching Research, 2011. May 31. – № 15 (3). – P. 279-288 // <https://doi.org/10.1177/1362168811401150>

¹⁴ Wenli Tsou Shin-Mei Kao English as a medium of Instruction in Higher Education Implementations and classroom practices in Taiwan// e-book/2017. – P. 212.

Demak, sohaviy fanlarni ingliz tilida o‘qitish (EMI)ning yo‘lga qo‘yilishi bir yo‘la ham til o‘rganish, ham sohani o‘rganish orqali ta‘lim sifatining oshishiga, maqsadli ta‘limning va akademik mobillikning ta‘minlanishiga, oliy ta‘lim muassasalarining xalqaro reyting mezonlari darajalariga erishish maqsadida doimiy rivojlanib borishiga olib keladi.

Dissertatsiyaning “**Xorijiy mamlakatlarda sohaviy fanlarni ingliz tilida o‘qitish tajribasi**” deb nomlangan ikkinchi bobida Yevropa va Osiyo mamlakatlarida EMI tajribasi hamda O‘zbekistonda uning tatbiq etilish holati, mavjud muammolar va imkoniyatlar o‘rganilgan.

Respublikamizning oliy ta‘lim muassasalarining xalqaro reytingini oshirish, xalqaro 1000 talik, 500 talik ro‘yxatga kiritish masalasi birinchi o‘rinda turgan bir paytda bunga erishish hamda OTMlarning nufuzini oshirish uchun: mutaxassislik fani o‘qituvchilarining ingliz tilini bilish darajasi B2dan yuqori bo‘lishi va sohaviy fanlarni xorijiy tilda o‘qitilishi; ilmiy tadqiqot ishlarning natijalari nufuzli xalqaro jurnallarda chop etilishi; OTMlarining texnik bazasi va onlayn ta‘lim imkoniyatlari yuqori darajaga ko‘tarilishi taqazo etiladi. Bugungi kunda turli mamlakatlarda sohaviy fanlarni chet tilida o‘qitish turli bosqichlarda va darajalarda qo‘llanilib kelinmoqda. So‘nggi yillarda MDH davlatlarida ham mavzukur ta‘lim keng ommalasha boshladi va buning turli omillari mavjud¹⁵. Rossiyada bu yo‘nalishning o‘sishi mahalliy universitetlarda xalqaro talabalar sonining ko‘payishi bilan bog‘liq bo‘ldi. 2010-2011-yil xalqaro talabalar 2,2 %ni tashkil etgan bo‘lsa, 2019-2020-yillar ushbu ko‘rsatkich 7,3 %ga oshgan. 2013-yildan manejment va ijtimoiy fanlar yo‘nalishidagi universitetlarda magistratura bosqichiga ham chet ellik talabalar qabul qilingan. Biroq ushbu universitetlarda xorijiy talabalarni o‘qitishda bir qator muammolar ham mavjud bo‘lib, buni EMI ushbu davlatda hali yangi yo‘nalish ekanligi bilan izohlaydilar. Osiyo mamlakatlarida EMI o‘qitilishi allaqachon trendga aylangan bo‘lib, bu haqdagi ma‘lumotlar quyidagi jadvalda berilgan (3-jadvalga qarang).

3-jadval

Osiyo mamlakatlarida EMI o‘qitilishi bo‘yicha ta‘lim siyosati

Mamlakatlar	EMI o‘qitilishi holati
Xitoy	Ta‘lim vazirligi tomonidan qabul qilingan oliy ta‘lim muassasalarida maksimum internalizatsiya masalasi qo‘yilgan.
Gong-Kong	8 ta mahalliy oliy ta‘lim muassasalaridan 6 tasida mashg‘ulotlar ingliz tilida olib boriladi.
Indoneziya	1949-yildan buyon universitetlarda ingliz tili bo‘limlari ochilgan, bitiruvchilar ingliz tilidan (TOEFL) testlarini topshiradilar.
Yaponiya	Ingliz tilida mashg‘ulotlar olib boriladigan 13 ta eng nufuzli OTMlari uchun grantlar mavjud bo‘lib, bu xorijiy talabalar safini kengaytirishga qaratilgan.
Malayziya	Oliy ta‘lim vazirligi 2020-yilda 200 000 yaqin xorijiy talabalarni qabul qilishini rejalashtirgan. Ingliz tili rasmiy til bo‘lmasa-da, amalda barcha OTMlarda fanlar ingliz tilida o‘qitiladi ¹⁶ .

¹⁵ Bezborodova A. & Radjabzade S. English in higher education in the Kyrgyz Republic, Tajikistan and Uzbekistan // World Englishes, 2021. – № 41 (1). – P. 72-91 // <https://doi.org/10.1111/weng.12556>

¹⁶ Mohammad Mosiur Rahman, Manjet Kaur Mehar Singh, Monabbir Johan and Zohur Ahmed English Medium Instruction Ideology, management and practices: a Case study of Bagladesh Private University // English Teaching and Learning, 2020. Volume 44. Number 1. – P. 61-79.

2013-2014-yillarda Britaniya Kengashi Oksford universiteti tomonidan EMI dunyo miqyosida o'qitilishi borasida o'tkazilgan tadqiqotida xususiy va mahalliy, boshlang'ich va o'rta ta'lim maktablarida hamda oliy ta'lim muassasalarida olib borilgan. Berilgan ma'lumotlarga ko'ra, 49,1 % mamlakatlarda EMI o'qitish bo'yicha hukumat qarorlari qabul qilingan bo'lib, mazkur qarorlarning so'nggi o'n yillikda bajarilishi 62 %ni tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkich mazkur davlatlardagi ta'lim muassasalari xalqaro reytinglarini oshirishga harakat qilayotganliklarini ko'rsatadi. Britaniya Kengashi 2019-2021-yillarda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida EMI o'qitish strategiyasini uzoq muddatli rivojlantirish loyihasini yo'lga qo'ydi. Loyihaning maqsadi ESP va EMI o'qituvchilarini o'zaro hamkorlik asosida o'qitish tizimini yo'lga qo'yishdan iborat bo'lib, buni quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi rejalashtirildi: loyiha ishtirokchilariga EMIda ta'lim berish metodikasini o'rgatish bo'yicha treninglar tashkil etish; o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi uchun o'quv materiallari va vositalarini shakllantirish; loyiha ishini doimiy ravishda baholab borish, EMI o'qituvchilari va talabalarning til bilish darajasini, o'qituvchilar pedagogik kompetensiyalarining rivojlanganlik darajasini aniqlab borish; EMIda oid namunaviy va ishchi dasturlarni takomillashtirish hamda EMI o'qitishning standartini ishlab chiqishdan iborat.

Ko'rsatilgan vazifalarni 3ta bosqichda bajarilishi rejalashtirildi: birinchi bosqichda – loyiha rejalarni belgilash va EMI oliy ta'lim muassasalari bilan tanishish; ikkinchi bosqichda – EMI materiallarini tayyorlash va koordinatorlarni belgilash, 10 ta EMI kompetensiyalarini rivojlantirish; uchinchi bosqichda – EMIning baholash bo'yicha treninglar o'tkazish va natijalarni umumlashtirish, so'rovnomalar o'tkazish¹⁷.

Mazkur loyihada O'zbekistonning 16 ta oliy ta'lim muassasalaridan 34 nafar ingliz tili va mutaxassislik fani o'qituvchilari ishtirok etdilar. O'tkazilgan so'rovnomalarda, jumladan, Urganch davlat universiteti o'qituvchilari loyiha yutuqlarini qayd etgan holda EMI o'qitilayotgan talabalar so'z boyligining yetarli emasligi, ularning sohaviy terminlarni ingliz tilida izohlay olmasliklarini, ingliz tilini bilish darajalari o'ta pastligini, sohaviy fanlar haqidagi ma'lumotlar yetarli emasligini qayd etib o'tdilar. Mutaxassislik fanlarini ingliz tilida o'rganuvchi talabalar ham quyidagi kategoriyalarga bo'linadi: mutaxassislik fanini ingliz tilida o'rganish uchun ingliz tilini ma'lum bir darajada biluvchi talabalar; faqat bitta tilda so'zlashadigan talabalar; ingliz tilidan tashqari ikki yoki ko'p tillarni biladigan talabalar; ingliz tili hamda ikki yoki undan ko'p tillarni egallagan talabalar; EMI bo'yicha tajribasi yo'q talabalar; EMI bo'yicha tajribasiga ega talabalar.

Ko'rinadiki, ta'lim beruvchilarning ham, ta'lim oluvchilarning ham ingliz tilini bilish darajalari turlicha. Ta'kidlash kerakki, sohaviy fanlarni ingliz tilida o'qitishda ma'ruza va amliy mashg'ulotlarni ingliz tilida tushunishning o'zigina yetarli emas, ushbu mashg'ulotlarda talabalar kasbiy sohaga oid masalalarni muhokama qila olishlari, muammolarni hal qila olishlari ham kerak. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun ESP o'qituvchilari bilan hamkorlikda terminologik lug'atlarni yaratish,

¹⁷ EMI in Higher Education in Uzbekistan-project catch-up/ EMI project resources.

til ko'nikmalarini rivojlantirishda ingliz tili o'qituvchilari bilan o'zaro aloqada ishlash, flipped learning usulidan foydalanish, onlayn kurslarni yaratish, EMI o'quv materiallarini ingliz tili o'qituvchilari bilan hamkorlikda tayyorlash, loyihadan olgan bilim va ko'nikmalarini boshqa mutaxassislik fanlari o'qituvchilariga treninglar orqali yetkazish takliflari ilgari surilgan.

Eng asosiy kamchiliklardan biri – til o'qituvchilarining umumiy ingliz tilidagi darajalari pastligi bo'lib, shuning uchun ham ingliz tilini kasbiy maqsadlarda o'qitish tajribasiga ega mutaxassislar soni kam. Bu oliy ta'lim muassasalarida sohaviy ingliz tili yo'nalishlarini ko'paytirish, filologik yo'nalishlarda ham ingliz tili o'qituvchilarini turli sohalar bo'yicha tayyorlashni kengaytirishni taqazo etmoqda. Ko'p mamlakatlarning yetakchi universitetlari tajribasida, jumladan, Moskva davlat lingvistik universiteti bevosita tillarni o'qitishga yo'naltirilgan bo'lsa-da, har bir fakultetda muayyan mutaxassislik o'qitiladi va chet tili sohaviy til sifatida o'rgatiladi.

O'zbekistonda ham qator OTMlarda bu kabi ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va amaliyotga tatbiq qilish boshlangan. Xususan, 2018-2019-o'quv yilidan boshlab ryespublikamizning 16 ta oliy ta'lim muassasasida xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash faoliyati yo'lga qo'yildi¹⁸. Bugungi kunda respublikamiz OTMlarining deyarli har birida xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan qo'shma ta'lim dasturlari tuzilgan. Buni tibbiyot OTMlari misolida ko'radigan bo'lsak, Toshkent davlat tibbiyot akademiyasi + Sankt-Peterburg universiteti, Toshkent davlat pediatriya tibbiyot instituti + Sankt-Peterburg davlat pediatriya tibbiyot universiteti, Toshkent davlat stomatoliya instituti + Moskva davlat universiteti, Toshkent davlat tibbiyot akademiyasi + Qozon davlat tibbiyot universiteti bilan 2+2, 3+2, 4+1 qo'shma ta'lim dasturlari faoliyat yuritmoqda. Ushbu ta'lim dasturlarida o'qishning afzalligi ikkala OTMni tugallanganlik haqidagi diplom (Double degree diploma) berilishi va ta'limning shartnomada kelishilgan bosqichlarini hamkor (2/2, 3/2, 4/1) universitetlarda davom ettirish imkoniyatining mavjudligidir.

Biroq ta'kidlash joizki, ushbu yo'nalishlarda ta'lim oluvchilarga qo'yiladigan asosiy talab qo'shma dasturga kiritilgan hamkor oliy ta'lim muassasasining ta'lim tilini mukammal bilishi talabi tufayli barcha qo'shma dasturlar ham samarali faoliyat yuritayotgani yo'q. Aksariyat tibbiyot OTMlarining qo'shma dasturlari Rossiyaning tibbiyot yo'nalishlari bilan tuzilganligi bois talabalarning kirish imtihonlarida rus tilidagi grammatik va leksik ko'nikmalari tekshiriladi. Biroq tadqiqot jarayonida olib borilgan kuzatuvlar ushbu qo'shma dasturlarda ta'lim berayotgan professor-o'qituvchilar va talabalar tibbiyot yo'nalishidagi Rossiya OTMlarida o'qishni davom ettirish uchun ingliz tilini ham mukammal bilishlari kerakligi hozir talab darajasiga aylanib borayotganini ko'rsatmoqda.

¹⁸“Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030-йилгача ривожлантириш концепцияси”ни тасдиқлаш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони // <https://lex.uz/docs/4545884>

Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida o'tkazilgan so'rovnomalarda aksariyat talabalar ikki tilli ta'limdan kengroq foydalanishlarini, ba'zi fanlar ingliz tilida, qolgan fanlar ona tilida o'qitilishi maqsadga muvofiqligini ham qayd etganlar. Shundan kelib chiqib, EMI o'qituvchilari oldiga quyidagi kasbiy rivojlantiruvchi maqsad-vazifalar ham qo'yilmoqda: sohaviy EMI ni o'qitish vazifalarini, ta'lim berish masalalarini aniq belgilab olish; sohani o'qitishda ingliz tilidan foydalanish kompetensiyalariga ega bo'lish hamda til va sohani integratsiyalab o'qitishning samarali usullarini bilish; turli xil til darajasiga ega ta'lim oluvchilarga EMI ni o'qitish usullarini to'g'ri qo'llash malakasiga egalik; mutaxassislik fanlari o'qituvchilari bilan doimiy aloqada bo'lish.

Demak, EMI yo'nalishi bugungi kunda o'ta dolzarb va bu sohadagi ishlarni kuchaytirish bo'yicha hukumatimiz tomonidan oliy ta'lim sifatini yaxshilash borasida oldimizga qo'yilgan vazifalarni bajarish hamda OTMning xalqaro reytingini oshirishning muhim omillaridan biridir.

Dissertatsiyaning uchinchi bobida **“Tibbiyot yo'nalishida sohaviy fanlarni ingliz tilida o'qitish metodologiyasi”** yoritilgan bo'lib, bunda respublikamiz tibbiyot OTMlarida EMI ni joriy etishning afzalliklari va qiyinchiliklari, mavjud muammolarni bartaraf etish yo'l-yo'riqlari, tibbiyot yo'nalishida sohaviy ingliz tilini o'qitish mazmuni va bosqichlari, samarali metodlari bayon etilgan.

Qayd etilganidek, bugungi kunda respublikamiz OTMlarining barcha nofilologik yo'nalishlarida mutaxassislik fanlarini ingliz tilida o'qitish masalasi nihoyatda dolzarb bo'lib, bu sohada muayyan yutuqlar ham, ayrim kamchiliklar ham mavjud¹⁹. Jumladan, F.Sharipov Toshkent davlat yuridik universitetida EMI ni o'qitish holatini tavsiflab, universitetda jami 19 moduldan 14 tasi ingliz tilida olib borilishini va aksariyat EMI o'qituvchilarida til ko'nikmalarining IELTS darajasi 7ni tashkil etishini, biroq talabalarning til bilish darajasi pastligi tufayli mutaxassislik fanlarini ingliz tilida o'qitishda ba'zi mavzularni ona tilida muhokama qilinishi mavzuni yana-da kengroq yoritish va puxta tushunish imkoniyatini berishini qayd qilib o'tadi.

Mamlakatimizda tibbiyot OTMlarida fanlarni ingliz tilida o'qitishni yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori bilan 2018-2019-o'quv yilidan boshlab respublikaning OTMlarida xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlari asosida hamkorlikda kadrlar tayyorlash faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Quyidagi jadvalda respublikamizdagi tibbiyot oliygohlarida EMI ning o'qitilishi holati tahlili berilgan (4-jadvalga qarang):

¹⁹Mukhamedov E. EAP assessment in an English-medium instruction university: a case from Uzbekistan. Евразийский Союз Ученых (ЕСУ), 2020. – № 7 (76). – P. 4-7.

Sharipov F. The teachers' perception in implementing English language as a medium of instruction in Tashkent state university of law // вестник науки и образования, 2021. – № 9 (112). Часть 3. – P. 42-46.

Tillaboyeva O. Teaching subject matter through english as the medium of instruction. The scientific heritage, 2020. – № 49. – P. 61-62.

Tibbiyot oliygohlarining “Davolash ishi” yo‘nalishida EMining o‘qitilishi holati (2017-2023-yil holatiga ko‘ra)

OTM nomi	O‘quv yili va EMI guruhlari soni	Qaysi fanlardan chet tilida dars o‘tilishi	O‘quv dasturlarining mavjudligi	IELTS sertifikatga ega o‘qituvchi soni
Toshkent davlat pediatriya instituti	2021-2022-o‘quv yili 1 ta guruh	“Patologik fiziologiya” va “Normal fiziologiya”	O‘quv dasturi tuzilgan	IELTS sertifikatiga ega o‘qituvchilar soni 1 ta
Buxoro davlat tibbiyot instituti	2019-yildan 6 ta guruhda	Patologik fiziologiya fani	“2+3”, “2+4” qo‘shma ta‘lim dasturlari tuzilgan	IELTS sertifikatiga ega o‘qituvchilar soni 2 ta
Toshkent tibbiyot akademiyasi	2017-2018-o‘quv yilidan 2-7 kurslarda 25 ta guruh	“Gospital xirurgiya”, “Nevrologiya”, “Oftalmologiya” “Normal fiziologiya”	29 ta fan bo‘yicha dasturlar, o‘quv-uslubiy majmualar ingliz tilida yaratilgan	79ta pedagog mashg‘ulotlarni ingliz tilida olib boradi, 18 tasi xalqaro sertifikatga ega
Toshkent stomatologiya instituti	2017-2018-o‘quv yilidan	Ayrim mutaxassislik fanlarini ingliz tilida o‘qitiladi	Qo‘shma dasturlar mavjud	Mahalliy o‘qituvchilarning til bilish darajalari yetarli emas
Andijon davlat tibbiyot instituti	2017-yildan beri o‘qitiladi 4 ta guruh	“Patologik fiziologiya” va “Fiziologiya”	Qo‘shma dasturlar mavjud	IELTS sertifikatga ega o‘qituvchilar soni 32 ta

Ko‘rinadiki, respublikamiz OTMLarida chet tillarida ta‘lim bera oladigan mahalliy pedagog kadrlarga talab kuchli va ularni qo‘llab-quvvatlashning vaqti allaqachon kelib bo‘lgan. Xususan, tibbiyot sohasida xalqaro hamkorlik va xalqarolashuvning naqadar zarurligini umumjahon pandemiyasi allaqachon isbotlab bergan. OTMLarning nufuzini oshirishda qo‘shma fakultetlarning samarali faoliyat olib borishi katta ahamiyatga ega, biroq professor-o‘qituvchilar salohiyati, til bilish darajasi yetarli bo‘lmas ekan, ularni kengaytirish muammoligicha qolaveradi. Bizningcha, sertifikatga ega o‘qituvchilarni xorijda malaka oshirish kurslariga yuborish ham EMI ta‘lim jarayonini qo‘llab-quvvatlab turuvchi vositalardan biridir.

Mazkur OTMLarda EMI darslari jarayonlari kuzatilganda professor-o‘qituvchilarning interfaol o‘yinlardan, mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar, individual loyihaviy, guruhiy ishlardan keng foydalanishlari aniqlandi. “Davolash ishi” fakultetining 2-bosqich talabalari bilan o‘tkazilgan “The role of liver in degistative system” (Ovqat hazm qilishda jigarning ro‘li) amaliy mashg‘ulotida talabalar ingliz tilidagi tibbiyotga oid terminlarni yaxshi tushunishlari, biroq murakkab qo‘shma gaplar tuzishda qiynalishlari kuzatildi. Darslar kuzatilganda, Buxoro davlat tibbiyot instituti talabalari juda faol ekanligi va til bilish ko‘nikmalari boshqa OTMLariga qaraganda ancha yuqoriligi aniqlandi. Aksariyat fan

o'qituvchilarida til bilish sertifikatini bo'lmasa-da, sohaviy fanni o'qitishda yetarli pedagogik mahoratga egalardir.

Andijon davlat tibbiyot institutida esa fan o'qituvchilari xorijiy universitetlarda malaka oshirgan yetuk mutaxassislar va chet tili bo'yicha sertifikatga ham egaliklari, biroq talabalarning chet tili ko'nikmasi past bo'lgani uchun dars jarayonida faollik yetishmasligi kuzatildi. So'rovnomalar javoblarida Toshkent davlat tibbiyot akademiyasida "Patologik fiziologiya" fani o'qituvchilari ma'ruzalarni an'anaviy usulda o'tish, seminar mashg'ulotlarida tezkor savol-javoblardan foydalanish ma'qul deb hisoblab, tibbiyot yo'nalishida turli interfaol usullardan foydalanish mavzuni tushunishga to'sqinlik qilishini qayd etganlar. Biroq boshqa o'qituvchilarning ta'kidicha, aynan EMI mashg'ulotlarida interfaol usullardan foydalangan holda darslarni tashkil etish mavzuni tushunib qabul qilish va puxta o'zlashtirishga yordam beradi. Toshkent davlat stomatologiya institutining sohaviy fanlardan ingliz tilida mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchilari tibbiyot yo'nalishida ko'rgazmalilikni eng muhim tamoyil, deya qayd etganlar. Tahlillar respublikamiz OTMlarida EMI ni joriy etishda quyidagi afzalliklar va qiyinchiliklar mavjudligini aniqlash imkonini berdi 5-jadvalga qarang).


5-jadval

OTMlarda EMIning joriy etishning afzalliklari va qiyinchiliklari

Afzalliklar	Qiyinchiliklar
Talaba va o'qituvchilarning chet (ingliz) tilini bilish darajalarining tobora ortib boradi	Tajribali professor-o'qituvchilarning ingliz tilini bilish darajasi past va yosh chegarasi tufayli ularda til bilish ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyati kamligi
Mutaxassislikka oid ingliz tilidagi o'quv adabiyotlardan foydalana olish imkoniyati kengayib boradi	Ingliz tilida yo'nalishlar bo'yicha mutaxassislikka oid o'quv adabiyotlar yetarli emasligi
OTMlarda turli yo'nalishlar bo'yicha chet ellik talabalarni o'qitish uchun til ko'nikmalariga ega professor-o'qituvchilar safi ko'payib boradi.	Mutaxassislik fani o'qituvchilarida ilmiy ishlarini xalqaro jurnallarda chop etish va konferensiyalarda ishtirok etish salohiyati mavjud, biroq iqtisodiy to'siqlar aksariyat OTMlar tomonidan bartaraf qilinmaydi.
Universitetlar o'rtasida o'tkaziladigan uchrashuvlar va anjumanlarda soha vakillari tarjimonsiz muloqot yurita oladilar	Talabalarning chet tili ko'nikmasi past bo'lgani uchun dars jarayonida faollik yetishmaydi.
Professor-o'qituvchilar va talabalar xalqaro loyihalarda ishtirok etish hamda grantlar yutish imkoniyati kengroq bo'ladi	Talabalar mavzu bo'yicha ma'lumotlarni bir akademik soatda o'zlashtirishda qiyinchilikka duch keladilar.
Talabalarga xorijiy OTMlarda magistratura va doktoranturada o'qishni davom ettirish imkoniyatini beradi	

Ko'rinadiki, oliy ta'lim tizimida mutaxassislik fanlarini ingliz tilida o'qitishning afzalliklari talaygina, yoshlar ham shunga xayrixoh. Agar quyi ta'lim bosqichlarida umumiy maqsadlarda ingliz tilini o'qitish kuchaytirilsa, EMI darslarini ommalashtirish imkoniyati yana-da ortadi. Tadqiqotimiz jarayonida


tibbiyot yo‘nalishi OTMLarining ingliz tilida sohaviy fanlardan dars beruvchi o‘qituvchilari uchun EMIning o‘qitishni tashkil etishning maxsus kursi rejasi ishlab chiqildi. Ushbu kurs, jumladan, tibbiyot akademiyasining malaka oshirish kurslarida, bosh ilmiy-metodik markazning malaka oshirish tarmoqlarida xorijlik mutaxassislarini jalb qilish orqali qo‘llanilishi ham mumkin (2-rasmga qarang).



2-rasm. Tibbiyot yo‘nalishi professor-o‘qituvchilari uchun EMI kursi.

Ushbu kurs ikkita asosiy moduldan iborat bo‘lib, har biri uchun EMI o‘qituvchilarining malaka kontentlari berilgan. Ushbu kontentlar mazmuniga ta‘lim beruvchilarning ehtiyojlari va talablaridan kelib chiqib ayrim qo‘shimchalar kiritilishi mumkin. Shu o‘rinda EMI talabasining til kompetentligining asosiy talabi ularning til bilish darajasi B1dan yuqori bo‘lgan sertifikatga ega bo‘lishidir. Xalqaro til sertifikatining mavjudligi sezilarli natijani qo‘lga kiritishda juda muhim bo‘lib, EMI guruhlariga tavsiya etilgan ayrim talabalarning til bilish darajalari pastligi ta‘lim jarayonini qiyinlashtiradi.

Tibbiyot yoʻnalishi oliy taʼlim tizimidagi uzoq muddatli taʼlim turi boʻlgani bois EMIning ushbu OTMlarda quyidagi bosqichli ketma-ketlikda tashkil etishni tavsiya etamiz (3-rasmga qarang).



3-rasm. Tibbiyot yoʻnalishida EMIning oʻqitishning bosqichli konsepsiyasi.

Tadqiqotchi B.Moncada EMIning oʻqitishda CLIL usuliga toʻliq suyanish samarali deb hisoblaydi va buni “CLIL-ised EMI” bilan izohlaydi²⁰. Sohaga asoslangan yondashuv (CBI)ning asosiy maqsadi muayyan sohani oʻrgatish boʻlib, bunda oʻqitish sohaviy mavzular dasturi yoki grammatik mavzular ketma-ketligiga asoslangan modyellar asosida tashkil etilishi mumkin. Mashq va topshiriqlarga asoslangan yondashuv (TBA)da hayotiy vaziyatlarga mos yoki mutaxassislikka oid materiallar asosida ishlab chiqilgan mashq va topshiriqlar vositasida talabalarning EMIning koʻnikmalari rivojlantirib boriladi (6-jadvalga qarang).


²⁰ Moncada B. CLIL-ised EMI in practice: issues arising // Language learning journal, 2019.

**“Normal fiziologiya” fanini ingliz tilida o‘qitish
usul, shakl va vositalari**

Nutq ko‘nikmalari	Ussullari	Shakllari	Vositalari	Natija
Fiziologiyaga oid leksikani o‘qitish	Leksikani o‘qitishda “Elicitation”, “Content Clarification Questions”, “Text-based learning”, “Flipped classroom” “Aysberg” usullaridan foydalanish	Guruh bo‘lib ishlash, amaliy va ma‘ruza mashg‘ulotlarida	Ko‘rgazmaliylik, stimulatsion xonalar, darslik, autentik matnlar	Talabalar fiziologiyaga oid terminlarni qo‘llashda kognitiv ko‘nikmalari rivojlanadi. Shuningdek, tanqidiy fikrlash kompetensiyalri oshib boradi.
Terminlarning tallafuzini o‘qitish	Fonetikani o‘qitishda “Content Clarification Questions”, “Repetition”, “Drilling”, “No error correction” usullaridan foydalanish	Individual, mustaqil va amaliy mashg‘ulotlarda	Audio materiallar, autentik matnlar, elektron lug‘atlar	Talabalar fiziologiyaga oid terminlarni talaffuzidagi xatoliklar takrorlash orqali to‘g‘irlanadi
Reseptiv nutq ko‘nikmalari	O‘qish va tinglab tushunish ko‘nikmalarini “Identifying key points”, “Flipped classroom”, “Text based learning” usullaridan foydalanish	Ma‘ruza, amaliy, laboratoriya, onlayn ma‘ruzalar, juft va guruh bo‘lib ishlash, individual, mustaqil ta‘lim shakllari	Fiziologiya mavzulari bo‘yicha video va audio materiallar, ilmiy maqolalar, konferensiya to‘plamlari	Talabalar sohaviy matnlarni o‘qishda asosiy mazmuni tez tushunadilar, darsdan oldin o‘rganilgan material mahsg‘ulotda qiyinchilik tug‘dirmaydi
Produktiv nutq ko‘nikmalari	Yozish va gapirish ko‘nikmalarini “Transformation”, “Case study”, “Describing”, “Presenting” usullaridan foydalanish	Ma‘ruza, amaliy, laboratoriya mashg‘ulotlarida individual, juft va guruh bo‘lib ishlashda	Ko‘rgazmaliylik, stimulatsion xonalar, darslik, autentik materiallar	Talabalarning tanqidiy fikrlash, ma‘lumotlarni jamlash, farqlash, namoyish etish va yechim topish ko‘nikmalarini rivojlantiradi

“Normal fiziologiya” fani ***“Functions of the spinal cord”*** mavzusida TBA topshirig‘idan foydalanish namunasi.

In-class assignment topshirig‘i. Rasmga qarab umurtqa pag‘onasining tuzilishi va uning vazifasifalarini izohlab bering. (Look at the picture and describe the spinal cord structure, speak about the functions of nerve pairs)



4-rasm. TBA topshirig‘i

Tibbiyot yo‘nalishidagi oliy ta‘lim muassasalarida sohaviy fanlarni ingliz tilida o‘qitishning qisman EMI va to‘liq EMI bosqichli o‘qitilishi dastlabki EMIning joriy etishda muhim hisoblanadi va bunda har bir bosqichning o‘ziga xos funksiyalari va ta‘lim berish maqsadlari mavjud. «Normal fiziologiya» fanini o‘qitishda mavzuni tushunishda talabalarning kognitiv-akademik malakalarini rivojlantirish, ingliz tilidagi autentik o‘quv materiallardan ko‘proq foydalanishni taqazo etadi. Shuningdek, ingliz tilida olib boriladigan “Normal fiziologiya” fanini lotin tili fani bilan integrasiyalash fanga oid terminologiyani tushunishda samarali hisoblanadi.

Tibbiyotga oid sohaviy fanlarni ingliz tilida o‘qitishda teskari sinf (Flipped learning) metodikasidan foydalanish ingliz tilidagi terminlarni oldindan tushunish, mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim hisoblanadi. Shuningdek, «Normal fiziologiya» fanini ingliz tilida o‘qitishda topshiriqlarning bajarilishiga oid konseptni aniqlash savol turlari (Concept checking questions) va ko‘p formatli ma‘lumot (Multimodal input) usullariga ustuvorlik berish ta‘lim sifatini oshirishda muhim. Quyidagi jadvalda tadqiqotimiz jarayonida ishlab chiqilgan tibbiyot yo‘nalishida sohaviy fanlarni ingliz tilida o‘qitish tamoyillari, bosqichlari va qo‘llaniladigan yondashuvlar mexanizmini keltiramiz (7-jadvalga qaran).

Dissertatsiyaning **“Tibbiyot OTMlarida mutaxassislik fanlarni ingliz tilida o‘qitishning eksperimental tadqiqi”** yoritilgan to‘rtinchi bobida respublikamizning tibbiyot yo‘nalishidagi OTMlarida sohaviy fanlarni ingliz tilida o‘qitish va EMI mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha o‘tkazilgan pedagogik eksperiment samaradorligi yoritildi. Ilmiy-nazariy tadqiqot ishlari, metodik manbalarni o‘rganish, EMIning o‘qitish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalar bilan tanishish hamda respublikamizda tibbiyot yo‘nalishidagi OTMlarda olib borilgan uzoq yillik pedagogik tajribalarimiz asosida eksperimental tadqiqotning ilmiy farazi shakllantirildi.

**TIBBIYOT YO'NALISHIDA MUTAXASSISLIK FANLARINI
INGLIZ TILIDA O'QITISHNI TASHKIL ETISH METODIKASI**

Tamoyillari

OTMlarining rektorlari, o'quv ishlari bo'yicha prorektori va fakultet dekani, kafedra mudirlari EMI ta'limini qo'llab-quvvatlashlari.	Tibbiyot yo'nalishi mutaxassislik fani o'qituvchilarining ingliz tilini bilish darajalari (Intermediate, Upper-Intermediate) bo'lishi yoki til bilish IELTS 5,5-6, CEFR B2 darajadan yuqori bo'lishi	Mutaxassislik fanlaridan ingliz tilida o'quv adabiyotlari, audio yoki video materiallarning OTMlarining axborot-resurs markazlarida mavjudligi.	Tibbiyot OTMlari talabalarining til bilish darajasi (Intermediate, Upper-Intermediate) bo'lishi yoki til bilish IELTS 5,5-6, CEFR B2 darajadan yuqori bo'lishi
---	--	---	--

Bosqichlari

1-bosqichda Maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili (ESP)	1-semestrda Umumakadem maqsadlarda ingliz tili (EGAP)	2-semestrda Kasbiy maqsadlarda ingliz tili (EPP)	2-bosqich 3-semestrda Tanlov fan sifatida EMIGA qo'shimcha tayyorlov kursi, Maxsus akadem ingliz tili (ESAP)	2-bosqich Qisman EMI Seminar va amaliy mashg'ulotlar ingliz tilida	3-bosqich to'liq EMI ma'ruzalar ingliz tilida	4-5-6-bosqichlarda talabalar alashunuv dasturlari, xorijda amaliyot o'tash
---	---	--	--	--	---	--

Yondashuvlar

CLIL -til va soha integratsiyasi yondashuvi CBA-sohaga asoslangan yondashuv TBA-mashq va topshiriqqa asoslangan yondashuv

Shakllari

Ana'naviy Onlayn Mustaqil ta'lim	Ma'ruza amaliy Seminar Laboratoriya	Flipped classroom, Co-teaching, Blended learning Bloom's taxonomy, Ko'rgazmaliylik	Topshiriqlar Case study Text based learning Content Clarification Questions Elicitation Drilling No error correction Transformation
----------------------------------	-------------------------------------	--	---

Ushbu farazimizga ko'ra agar:

–tibbiyot yo'nalishida EMI darslarini tashkil etish bo'yicha tizimlashtirilgan bosqichli dasturdan foydalanishning samarali metodlari ishlab chiqilsa;

– tibbiyot yo'nalishida ingliz tilini o'qitishda talabalarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda umumkasbiy, umumakadem va maxsus kasbiy va maxsus akadem maqsadlarda o'qitish yo'lga qo'yilsa;

– EMI o'qituvchilarining imkoniyatlarini o'rganish va o'z ustida ishlash orqali malakalarini oshirish usullari ishlab chiqilsa;

– professor-o'qituvchilarning ingliz tilida sohaviy fanni o'qitishda mutaxassislik materiallardan pedagogik maqsadlarda foydalanish usullari tadbiiq etilsa respublikamizda tibbiyot oliygohlarida EMIning o'qitish samaradorligi ta'minlanadi.

Tadqiqot ishi bo'yicha tajriba-sinov ishlari 2021-2023-yillarda respublikamizning tibbiyot yo'nalishidagi OTMlari: Toshkent davlat tibbiyot akademiyasi, Toshkent davlat pediatriya instituti, Toshkent davlat stomatologiya instituti, Andijon davlat tibbiyot instituti, Buxoro davlat tibbiyot institutlarining "Davolash ishi" yo'nalishlarida quyidagi 4 bosqichda o'tkazildi:

1. Tashxislash va bashorat qilish bosqichi (2021-2022-o'quv yili)da:

tibbiyot yo'nalishidagi OTMlarining amaldagi namunaviy dastur, ishchi o'quv dasturlari, darsliklarni tahlil qilish va dars jarayonlarini kuzatish;

professor-o'qituvchilar va talabalardan so'rovnomalar olish va tahlil qilish;

tajriba va nazorat guruhlarida o'qituvchilar EMI mahoratlari hamda talabalarining ingliz tilidagi ko'nikmalarining dastlabki holatini aniqlash vazifalari belgilandi.

2. Tashkiliy tayyorgarlik bosqichi (2021-2022-o'quv yili)da tajriba-

sinov ishlarini o'tkazish joyi, vaqti, tajriba-sinov muddati va o'quv materiali miqdori belgilandi hamda tajriba-sinovda ishtirok etuvchilar tanlab olindi. Prognostik bosqichda aniqlangan muammo asosida "Normal fiziologiya" fanini ingliz tilida o'qitish xususidagi didaktik ta'minot yaratildi. Shuningdek, tajriba-sinov ishining tashkiliy ta'minoti ishlab chiqildi.

3. Amaliy bosqich (2022-2023-o'quv yili). Bu bosqichda respublikamiz tibbiyot yo'nalishidagi OTMlarda:

davolash ishi yo'nalishidagi TTA, TPI, TSI, ADTI, BDTIlarida tajriba guruhlarini bilan maqsadli ish olib borish;

tibbiyot yo'nalishida EMIning tashkil etishning bosqichli mexanizmining o'quv-uslubiy ta'minotini tajriba-sinovdan o'tkazish;

EMIning baholash mezonlarini ishlab chiqish;

tajriba guruhlarida EMI qo'llanilishning shakllanganlik darajasini aniqlash va umumlashtirish vazifalari belgilandi.

4. Umumlashtiruvchi bosqich (2022-2023-yil). Ushbu yakuniy bosqichda

tajriba va nazorat guruhlarini natijalarini umumlashtirib qiyosiy tahlil qilish;

tajriba va nazorat guruhlarini ko'rsatkichlarini statistik tahlil qilish hamda samaradorlik darajasini aniqlash vazifalari belgilandi.

Ushbu vazifalardan kelib chiqib, dastlabki bosqichda tibbiyot yo'nalishidagi OTMlarning o'quv-uslubiy ta'minoti, ishchi o'quv dasturlar o'rganildi, darsliklar

tahlil qilindi va EMI darslari kuzatildi. Tanlab olingan tajriba maydonlarining 25 nafar professor-o'qtuvchilari va jami 865 nafar talabalardan respublikamizda tibbiyot yo'nalishida sohaviy fanlarni ingliz tilida o'qitilish holati hamda talabalarning kasbiy ingliz tilini bilish darajasi, kelajakdagi kasbiy faoliyatda ingliz tilidan foydalanish maqsadi borasida so'rovnomalari o'tkazildi va javoblar tahlil qilindi.


Buning uchun tajriba va nazorat guruhlari shakllantirildi va dastlabki holatni aniqlash uchun o'quv mashg'uloti davomida EMI holati aniqlandi. Natijalar quyidagicha bo'ldi (8-jadvalga qarang).

8-jadval

Tibbiyot oliygo'harida mutaxassislik fanlarini ingliz tilida o'qitishning dastlabki holati tahlili

Topshiriqlar	TTA talaba soni		TPI talaba soni		TDSI talaba soni		ADTI talaba soni		BDTI talaba soni	
	TG	NG	TG	NG	TG	NG	TG	NG	TG	NG
Dars jarayoniga jalb etilganlik	28	27	28	25	18	17	21	19	21	19
Mashg'ulotda faolligi	21	22	26	19	17	16	21	18	20	14
Vazifalarning bajarilishi	21	22	26	19	17	16	21	18	20	14
Jami %	68	32	40	60	72	30	55	45	34	76

Ushbu ko'rsatkichlar quyidagi diagrammada quyidagicha ko'rinishga ega bo'ldi:



5-rasm. EMI mashg'ulotlarining dastlabki holati ko'rsatkichlari.

Amaliy bosqichda quyidagi vazifalar amalga oshirildi: Tadqiqot ishi hududlari sifatida tanlab olingan respublikamizdagi tibbiyot yo'nalishidagi OTMlari – Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent pediatriya instituti, Toshkent stomatologiya instituti, Andijon davlat tibbiyot instituti, Buxoro davlat tibbiyot institutlarining “Davolash ishi” yo'nalishlarida EMI darslarini tashkil etish ustida maqsadli ish olib borildi, tajriba guruhlarida EMIning qo'llash bo'yicha ishlab chiqilgan tizimlashtirilgan bosqichli dasturdan foydalanishning samarali metodlari

qo‘llanildi. Ushbu bosqichda quyidagi o‘quv-uslubiy topshiriqlar tajriba-sinovdan o‘tkazildi asosida:

1. Ingliz tilida mutaxassislikka oid og‘zaki savol-javoblar .
2. Mutaxassislikka oid kontentdagi muammolarni hal qilish (keysar asosida).
3. Loyiha ustida ishlash va uni ingliz tilida taqdimot qilish.
4. Mutaxassislik sohasida o‘tkazgan tajribalari asosida ingliz tilida yozma ma‘ruza matnini tayyorlash.

ma‘ruza matnini tayyorlash.

EMI o‘qitiladigan guruhlarda avval talabalarning ingliz tilini bilish darajasi aniqlab olindi, ularning darslarga qatnashishi va haftalik vazifalarning bajarilishi qat‘iy nazoratga olindi, mashg‘ulotlarda savol-javoblar, keysar muhokamalaridagi faolligi, EMI o‘qituvchisi bilan individual ishlash va loyihalar, ma‘ruzalar matnlarini tuzish, taqdimot qilishda erishgan natijalari alohida baholab borildi. Buning uchun quyidagi baholash mezonlari ishlab chiqildi (9-jadvalga qarang).

9- jadval

Tibbiyot yo‘nalishida EMI o‘qitilishi natijalarini baholash mezonlari

Topshiriqlar	Yaxshi “2”	O‘rta “1”	Qoniqarsiz “0”
1. Ingliz tilida mutaxassislikka oid og‘zaki savol-javoblar (Konseptni aniqlash savol usulida)	Normal fiziologiya va patologik fiziologiya fanlaridan mavzular bo‘yicha savollarga aniq javob beradi	Mavzular bo‘yicha berilgan savollarga qisman javob bera oladi	Mavzular bo‘yicha savollarga javob bera olmaydi
2. Mutaxassislikka oid kontentdagi muammolarni hal qilish (Teskari sinf usulida keysar asosida)	Normal fiziologiya bo‘yicha berilgan keysarlarga to‘liq javob bera oladi	Normal fiziologiya bo‘yicha berilgan keysarlarga ingliz tilida javob berishda ba‘zi leksik qiyinchiliklarga duch keladi	Normal fiziologiya bo‘yicha berilgan keysarlarga javob bera olmaydi
3. Loyiha ustida ishlash va uni ingliz tilida taqdimot qilish (Multimodal input usuli asosida)	Ingliz tilida tayyorlangan loyihalarni erkin taqdimot qila oladi	Loyihani taqdim etishda ba‘zi leksik va stilistik kamchiliklar mavjud	Loyihani ingliz tilida taqdim eta olmaydi
4. Mutaxassislik sohasida o‘tkazgan tajribalari asosida ingliz tilida yozma ma‘ruza matnini tayyorlash (Multimodal input usuli asosida)	Normal fiziologiya fani bo‘yicha yozma matnlar tayyorlay oladi	Mavzular bo‘yicha yozma matnlarni tayyorlashda leksik va grammatik xatolarga yo‘l qo‘ygan	Normal fiziologiya fani bo‘yicha yozma matnlar tayyorlay olmaydi


Shuningdek, tajriba-sinov ishlarida talabalarning ingliz tilida retseptiv va prodktiv nutq ko‘nikmalarini baholashda quyidagi mezonlar asosida, talabalarning A1-C2 gacha bo‘lgan ko‘nikmalarini baholashning mezonlari aniqlab olindi.

Yuqorida berilgan baholash mezoni asosida tajriba hududlarida tajriba va nazorat guruhlarida olib borilgan olib borilgan ishlar natijalari quyidagi ko‘rsatkichlarni berdi.

Tibbiyot yoʻnalishida tajriba va nazorat guruhlarida EMI oʻqitilishining umumiy qiyosiy natijalari

OTM nomi	Tajriba guruhlarini (%)			Nazorat guruhlarini (%)		
	yaxshi	oʻrta	qoniqarsiz	yaxshi	oʻrta	qoniqarsiz
1. TTA	45,7	47,3	10,5	35,2	60	20
2. TPI	23,7	40	11,7	13	50,2	22,7
3. TSI	23,7	24,5	7,7	17,7	40	11,2
4. ADTI	64,2	52,5	12,7	27,2	61,7	23,5
5. BDTI	79	56,5	14,5	37,5	63,2	30

Natijalar diagramma koʻrinishida quyidagi shaklni oldi:



6-rasm. Tadqiqot ishining dastlabki va yakuniy natijalarining qiyosiy koʻrsatkichlari.

Statistik maʼlumotlar tajriba guruhidagi ballarning oʻrtacha qiymati nazorat guruhiga nisbatan yuqori ekanligini koʻrsatdi va olib borilgan tadqiqot ishlari samarali ekanligini isbotladi. Tajriba-sinov ishlari davomida talabalarning nutq koʻnikmalarini rivojlantirish va EMI dars jarayonini bosqichli tashkil etishning strategik xaritasi asosida boʻyicha quyidagi natijalarga erishildi:

tibbiyot yoʻnalishida sohaviy fanlarni oʻqitishning metodik tavsiyalar asosida tashkil etilgan mashgʻulotlar talabalarni fanga jalb qilishda samarali natijasini berdi;

talabalarning retseptiv va produktiv nutq koʻnikmalarini rivojlantirishga qaratilgan Blum taksanomiyasi usulidan foydalanilgan topshiriqlar asosida nutq koʻnikmalari rivojlantirildi;

“Normal fiziologiya” fani boʻyicha leksik koʻnikmalarini rivojlantirish yuzasidan tavsiya etilgan “Flipped classroom”, “Aysberg usul”lari samarali natijalarni berdi. Tajriba guruhidagi ballarning oʻrtacha qiymati nazorat guruhiga nisbatan retseptiv nutq koʻnikmalari boʻyicha 10,6 %ga, produktiv nutq koʻnikmalari boʻyicha 10,4 %ga, EMI dars jarayonini takomillashtirilganligi boʻyicha 13,3 %ga yuqori ekanligi maʼlum boʻldi. Tajriba-sinov ishlari nazariy jihatdan asoslangan va tibbiyot yoʻnalishi OTMlarida amaliyotga tatbiq etilgan sohaviy fanlarni ingliz tilida oʻqitishning rivojlanganlik darajasini aniqlash mexanizmi samarador ekanligini tasdiqladi.

XULOSA

1. Globallashuv jarayonida oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reytingini oshirishda professor-o'qituvchilar va talabalarining xorijiy tilda kommunikativ kompetensiyaga ega bo'lishlari ularning xalqaro ta'lim maydonida o'z o'rinlarini topishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim tizimida xalqarolashuvning dastlabki, tarkibiy, jamiyat xalqarolashuvi va xalqarolashuv kompetentligi bosqichlarida professor-o'qituvchilar hamda talabalarining madaniyatlararo muloqot ko'nikmasiga ega bo'lishi muhim indikator sifatida baholanadi.

2. EMI ta'limini yo'lga qo'yish orqali oliy ta'lim muassasalariga xorijiy talabalarni jalb etish, akademik mobillikni yo'lga qo'yish, xalqaro SCOPUS, Web of Science bazalariga kiritilgan jurnallarda maqolalarni chop etish, ta'lim muassasasining xalqaro reytingini oshirish va bu orqali universitetning iqtisodiy hamda akademik mustaqilligiga erishish mumkin.

3. Sohaviy fanlarni ingliz tilida o'qitishga qaratilgan CLIL, CBI yondashuvlari, shu jumladan, EMIning ham 2 xil (Soft EMI) tilni o'qitish va (Hard EMI) sohaviy fanni o'qitish xususiyatlarini aniqlash orqali tibbiyot yo'nalishida Hard EMI turini o'qitishning didaktik ta'minoti ishlab chiqilishi kerakligi aniqlandi.

4. Jahon tajribasida ingliz tilida ta'lim (EMI)ni qo'llayotgan mamlakatlarni shartli ravishda to'rt guruhga ajratish mumkin. Bunda, birinchi guruhga oliy ta'lim muassasalarida sohaviy fanlarning qariyb 80 foizi ingliz tilida o'qitiladigan ayrim Yevropa davlatlari kiradi. Ikkinchi guruhni Buyuk Britaniyaning sobiq mustamlakalari bo'lgan Malayziya, Singapur va Hindiston kabi mamlakatlar tashkil etadi. Uchinchi guruhga so'nggi o'n yil davomida ingliz tili ta'lim tili sifatida keng joriy etilayotgan Birlashgan Arab Amirliklari, Xitoy va Yaponiya kabi davlatlar kiradi. To'rtinchi guruh esa ingliz tilida ta'lim (EMI) tushunchasi endigina shakllanib borayotgan MDH davlatlari — Rossiya, Ukraina, Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekistonni qamrab oladi.

5. Oliy ta'lim muassasalarida EMI samarali qo'llanilayotganini aniqlash mezonlari: ta'lim muassasasi rahbariyatining qo'llab-quvvatlashi, ta'limdagi tilni qo'llanilishi, talabalarining til bilish darajasi, professor-o'qituvchilarda til bilish sertifikatining mavjudligi, qo'shimcha ingliz tilidan yordamchi (ESP, EAP, CLIL) kurslar mavjudligi bilan baholanadi.

6. Respublikamizda Britaniya Kengashining oliy ta'lim muassasalarida EMI islohotlari bo'yicha olib borgan loyihasi natijasida ishlab chiqilgan EMI professor-o'qituvchilarining kompetentlik standartida berilgan 10 ta mezonlari EMI ta'limini yo'lga qo'yishda yo'l haritasi sifatida xizmat qiladi. Biroq ushbu mezonlarni amalga oshirish bosqichlari va jarayoni har bir OTMning bo'lim, fakultet, kafedra o'qituvchilar, tadqiqotchilarning mas'uliyatlari doirasida bo'ladi.

7. Respublikamizda jami 11ta tibbiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari, ulardan tashqari xususiylar Toshkentdagi xalqaro kimyo-texnika instituti va Akfa xalqaro universitetining "Davolash ishi", "Stomatologiya" fakultetlarida EMI turli darajalarda o'qitilayotgani, biroq mahalliy tibbiyot OTMlarida to'liq EMI

kurslari mavjudligi, TTA, ADTI va BDTI dagina xorijiy talabalar uchun maxsus kurslar faoliyat olib borayotgani ma'lum bo'ldi.

8. EMI o'qituvchilarining malakalarini oshirishning Buyuk Britaniyaning Kembridj va Oksford universitetlari tashkil etilgan EMI malaka kurslarini respublikamizning malaka oshirish tarmoqlarida alohida modul sifatida o'qitish tavsiya etiladi. Asosiy yo'nalishlar sifatida ta'limiy jarayon uchun EMI va ilmiy-tadqiqot yo'nalishi uchun EMI o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishga erishish tavsiya etiladi.

9. EMI ta'limini yo'lga qo'yishda maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tilini o'qitish bilan bir vaqtda EMI darslarida nafaqat mutaxassislik fanini, balki til ko'nikmalarini baholab borilishi maqsadga muvofiq. Sohaviy fanlarni ingliz tilida o'qitishga yo'naltirilgan CLIL, CBI yondashuvlari va EMIning 2 xil (Soft EMI) tilni o'qitish hamda (Hard EMI) sohaviy fanni o'qitish xususiyatlarini o'rganib chiqish orqali tibbiyot yo'nalishida Hard EMI turini o'qitish maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi.

10. Tibbiyot yo'nalishidagi EMI o'qituvchilari maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tilini (ESP) o'qituvchilari bilan o'zaro muloqotda bo'lishlari fanlararo aloqadorlikni ta'minlaydi. Shuningdek, sohaviy fanlarni ingliz tilida amaliy mashg'ulotlarni o'tishda til o'qituvchilari emas, balki xalqaro til sertifikatiga ega kafedraning mustaqil izlanuvchilari va doktorantlarni jalb etish tavsiya etiladi.

11. Tibbiyot yo'nalishida EMIning yo'lga qo'yishda bosqichli ketma-ketligi tavsiya etilib, bunda: 1-bosqichda maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili (ESP), umumakadem maqsadlarda ingliz tili (EGAP), kasbiy maqsadlarda ingliz tili (EPP), maxsus akadem maqsadlarda ingliz tili (ESAP); 2-bosqichdan qisman EMI va 3-bosqichdan to'liq EMI mashg'ulotlariga o'tish tavsiya etiladi.

12. Tibbiyot yo'nalishida sohaviy fanlarni ingliz tilida o'qitishda "Flipped Classroom" va "Demonstration" usullari ham ma'ruza, ham amaliy mashg'ulotlarda foydalanilishi talabalarning darsga tayyorligi mavzuni osonroq tushunishi, qo'shimcha ma'lumotlar olishda muhimligi aniqlandi. Shuningdek, CBI, TBI, CLIL yondashuvlariga oid mashq va topshiriqlar EMIGA tayyorlov bosqichlarida hamda to'liq EMI darslarida foydalanilishi maqsadga muvofiq.

13. Tadqiqot ishiga EMI kurslarini baholashning Kirkpatrik mezonlari asosida: tinglovchilarning kursga munosabati, kurs davomida tinglovchilar bilim va ko'nikmalarini ega bo'lganliklari, ish jarayonida o'rgangan bilimlarini qo'llay olishi, ta'lim natijalarini baholash mezonlarining dastlabki ikki darajasi tanlab olinishi orqali mahalliy OTMlarda EMI o'qitilish holatini aniqlash mumkinligi dalillandi.

14. Tajriba-sinov jarayonida tibbiyot yo'nalishida EMI dars jarayonini baholash, ya'ni talabalarning dars jarayoniga jalb qilinganligi, mashg'ulotda faolligi, mavzu bo'yicha berilgan ma'lumotlar va topshiriqlar tushunarli bo'lganligi, vazifalarning o'z vaqtida bajarilishi mezonlari asosida baholansa, talabalarning nutq ko'nikmalarini baholashning retseptiv va produktiv nutq ko'nikmalari baholash mezonlari asosida baholandi.

15. Tibbiyot yo'nalishida "Normal fiziologiya" fanini ingliz tilida o'qitish bo'yicha ishlab chiqilgan dars ishlanmalari tajriba-sinovdan o'tkazildi va tibbiyot

oliy ta'lim muassasalarida talabalarining dars jarayoniga tayyorligi faolligi 13,3%ga, retseptiv ko'nikmalari 10,6 %ga va produktiv nutq ko'nikmalari 10,4 %ga oshganligi ma'lum bo'ldi.

TAKLIF VA TAVSIYALAR

1. Respublika oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reytinglardagi o'rnini mustahkamlash, akademik mobillikni kengaytirish hamda xorijiy talabalarni jalb etish zaruratidan kelib chiqib, mutaxassislik fanlari professor-o'qituvchilarining EMI (English as a Medium of Instruction) kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus malaka oshirish o'quv kurslarini oliy ta'lim tizimidagi malaka oshirish institutlari va tarmoq markazlarida joriy etish tavsiya etiladi.

2. Mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida EMIning tizimli joriy etish maqsadida "EMI Departments" (EMI bo'limlari)ni tashkil etish, ularning faoliyatini rejalashtirish, muvofiqlashtirish va monitoring qilish orqali EMIning bosqichma-bosqich joriy etishga qaratilgan institutsional yo'l xaritalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

3. Sohaviy fanlarni ingliz tilida o'qitishda sifat va uzviylikni ta'minlash maqsadida har bir fan bo'yicha namunaviy va ishchi dasturlar, dars ishlanmalari, baholash mezonlari, glossariylar, multimodal resurslar va qo'shimcha o'quv materiallarini o'z ichiga olgan "Curriculum pack"larni sohaviy fan o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqish va joriy etish tavsiya etiladi.

4. Nofilologik oliy ta'lim muassasalarida til tayyorgarligining uzluksizligini ta'minlash maqsadida "General English" fanini tanlov fani, "English for Specific Purposes (ESP)" fanini esa asosiy majburiy fan sifatida o'qitish, ularni mutaxassislik fanlari bilan mazmunan integratsiya qilish tavsiya etiladi.

5. EMI ta'limida baholash jarayonini takomillashtirish maqsadida fan mazmunini o'zlashtirish bilan bir qatorda talabalarining akademik-kasbiy til kompetensiyalarini integrallashgan baholash tizimini joriy etish, bunda retseptiv va produktiv nutq ko'nikmalarini EMI indikatorlari asosida baholash tavsiya etiladi.

6. Tibbiyot yo'nalishida EMI mashg'ulotlarini tashkil etishda sohaviy fan o'qituvchilari va ESP o'qituvchilari o'rtasida tizimli fanlararo hamkorlikni yo'lga qo'yish, amaliy mashg'ulotlarga xalqaro til sertifikatiga ega doktorantlar va mustaqil izlanuvchilarni jalb etish maqsadga muvofiq.

7. EMI ta'limining barqarorligini ta'minlash maqsadida professor-o'qituvchilar uchun uzluksiz kasbiy rivojlanish (CPD) tizimini shakllantirish, EMI bo'yicha milliy va xalqaro malaka oshirish kurslarini oliy ta'lim muassasalari faoliyatiga integratsiya qilish tavsiya etiladi.

8. EMI amaliyotini qo'llab-quvvatlashda raqamli ta'lim muhitidan (LMS, onlayn platformalar, multimodal kontent, ochiq ta'lim resurslari) samarali foydalanish, ingliz tilidagi sohaviy kontent asosida mustaqil ta'limni rivojlantirish mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiq.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
DSc.04/30.12.2019.Tib.30.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ
СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА ИМЕНИ
МИРЗО УЛУГБЕКА**

МАКСУДОВА ХИЛОЛА ФЕРДИНАНОВНА

**ТЕОРЕТИКО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ
ПРЕДМЕТОВ НА ИНОСТРАННОМ ЯЗЫКЕ В
НЕФИЛОЛОГИЧЕСКИХ НАПРАВЛЕНИЯХ ОБРАЗОВАНИЯ
(на примере медицинского направления)**

**13.00.02 – Теория и методика обучения и воспитания (методика преподавания
иностраных языков)**

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора педагогических наук (DSc)**

Тема диссертации доктора наук (DSc) по педагогическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2023.1.DSc/Fil523

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана им. Мирзо Улугбека.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.nuu.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный консультант:

Мухитдинова Хадича Собировна
доктор педагогических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Хашимова Дилдора Уринбаевна
доктор педагогических наук, профессор

Расулов Хамидулла Абдуллаевич
доктор медицинских наук, профессор

Эргашева Гули Исмаиловна
доктор филологических наук, профессор

Ведущая организация:

**Национальный педагогический университет
имени Низами**

Защита диссертации состоится « _____ » _____ 2026 года в _____ часов на заседании разового научного совета на основе Научного совета DSc.04/30.12.2019.Tib.30.03 при Ташкентской медицинской академии (Адрес: 100109, г.Ташкент, Алмазарский район, ул. Фаробий, 2. Ташкентская медицинская академия, 10 учебный корпус, 1 этаж. Тел./факс: (+99878) 150-78-25, e-mail: info@tma.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентской медицинской академии (зарегистрирован за № _____). (Адрес: 100109, г.Ташкент, Алмазарский район, ул. Фароби, 2. Ташкентская медицинская академия, 2 учебный корпус «Б» крыло, 1 этаж, комната 7., Тел./факс: (+99878) 150-78-14).

Автореферат диссертации разослан « _____ » _____ 2026 г.

(реестр протокола рассылки № _____ от « _____ » _____ 2026 г.).

Г.И. Шайхова

Председатель разового научного совета на основе научного совета по присуждению ученых степеней, доктор медицинских наук, профессор

Д.Ш.Алимухамедов

Ученый секретарь разового научного совета на основе научного совета по присуждению ученых степеней, доктор медицинских наук, доцент

И.А.Сиддикова

Председатель разового научного семинара при разовом научном совете на основе научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук)

Актуальность и необходимость темы диссертации. В современную глобальную информационную эпоху стремительное развитие интеграционных процессов в науке и производстве, проникновение процессов интернационализации в сферу образования еще больше усиливают спрос и потребность представителей различных сфер в ведении профессиональной коммуникации на иностранном языке. Болонская система, наглядно демонстрирующая опыт интернационализации образования, ускорила процесс интернационализации в системе высшего образования своими преимуществами, такими как целевое направление обучения студентов и развитие у них навыков самостоятельного обучения. Сегодня для повышения своего престижа в мире, достижения высоких показателей в международных рейтинговых критериях большое внимание уделяется развитию профессиональных и предметно-ориентированных коммуникативных компетенций специалистов на иностранном языке путем преподавания профильных дисциплин на английском языке. Поэтому одним из актуальных вопросов является повышение потенциала высших учебных заведений, преподавание профильных дисциплин на английском языке с целью вхождения в международные рейтинги QS и TNE, внедрение EMI в высших учебных заведениях.

В настоящее время в мире проводится ряд целевых научных исследований, направленных на повышение качества и эффективности преподавания иностранных языков путем его интеграции с профессиональными и специальными предметами. В этой связи особое значение имеет зарубежный опыт проектов EMI (English as a Medium of Instruction) и STEM (Science, Technology, Engineering, Maths) по преподаванию профильных предметов на английском языке в нефилологических вузах, научно-практические исследования в этой области в рамках проектов EMI в Узбекистане и ACCESS STEM, исследования, направленные на разработку теоретико-методических основ преподавания профильных предметов на английском языке в целях повышения престижа и статуса вузов в системе образования, международные публикации, а также увеличение числа иностранных студентов и преподавателей.

В нашей стране принимаются меры по повышению интеллектуального потенциала молодежи, формированию у них зрелых специалистов, владеющих информационными технологиями и иностранными языками. В связи с этим, в соответствии с Концепцией развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года, поставлены следующие задачи: «...повысить уровень охвата высшим образованием, готовить высококвалифицированные, творчески и системно мыслящие кадры, способные принимать самостоятельные решения на основе международных стандартов, создать необходимые условия для проявления их интеллектуальных способностей и формирования как духовно зрелых

личностей...»²¹. Исходя из этих задач, система высшего образования модернизация, внедрение дидактического обеспечения преподавания предметов на английском языке, соответствующего международным стандартам, для создания возможностей получения образования иностранными студентами целесообразно провести исследование по этому вопросу .

Президента Республики Узбекистан от 19 мая 2025 года № ПФ-88 « О мерах по последовательному продолжению реформирования системы здравоохранения в республике и принципах оказания медицинских услуг населению», Постановление от 19 мая 2021 года № ПП-5117 « О мерах по выводу популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан на качественно новый уровень», Постановление от 22 апреля 2025 года № ПП-149 «О мерах по коренному совершенствованию системы подготовки кадров в медицинской сфере» и Настоящее диссертационное исследование в определенной мере послужило реализации задач, определенных в других нормативных правовых документах по данной деятельности.

Соответствие исследования приоритетам развития науки и технологий республики. Исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики «В целях социально-правового, экономического, культурно-духовного и образовательного развития информационного общества и демократического государства, формирования системы инновационных идей и путей их реализации».

Обзор зарубежных исследований по теме диссертации ²². В ходе интернационализации образования ведущими мировыми научными центрами и высшими учебными заведениями проводится ряд научных исследований, посвященных проблемам английского языка как средства обучения и возможности его использования в учебных заведениях , среди которых: Институт образования UCL, Оксфордский университет (Великобритания), Университет Барселоны и Университет Комплутенсе (Испания), Гронингенский университет (Нидерланды), Лундский университет (Швеция), Тяньцзиньский университет иностранных языков (Китай), Гонконгский образовательный университет (Китай), Университет Кён Хи (Республика Корея), Национальный университет Сингапура (Сингапур), Вьетнамский национальный университет (Вьетнам), Университет Индонезии (Индонезия), Ближневосточный технический университет (Турция), Джорджтаунский университет (США), Федеральный университет Параны (Бразилия) ,

²¹Указ Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года № УФ-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года».

²² Обзор зарубежных исследований по теме диссертации www.ucl.ac.uk/ioe/, www.ox.ac.uk/web.ub.edu/en/home, www.ucm.es/english, www.rug.nl/?lang=en www.lunduniversity.lu.se/, www.tjfsu.edu.cn/, www.eduhk.hk/en/, www.khu.ac.kr/eng/user/main/view.do, nus.edu.sg/, portal.vnu.edu.vn/eng/, www.ui.ac.id/en/, www.metu.edu.tr/, www.georgetown.edu/, ufpr.br/ufpr-home/, www.uzswlu.uz/

Узбекский государственный университет мировых языков (Узбекистан). проводится.

